

YAPONIYA TA'LIM TIZIMI TAHLILI.

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi dotsenti

Xolov Olimjon

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

Todayeva Sayyora Azimjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yaponiya va O'zbekiston ta'lim tizimlari tahlil qilinadi. Yaponiya ta'limi intizom, mehnatsevarlik, innovatsiya va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv bilan ajralib turadi. O'zbekiston ta'limi esa so'nggi yillarda keng o'zgarishlar: 12 yillik maktab tizimi, yangi maktablar qurilishi va maktabgacha ta'limni rivojlantirish orqali taraqqiy etmoqda. Maqolada ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilar malakasini kuchaytirish, shahar va qishloq maktablari o'rtasidagi farqni kamaytirish zaruriyati ta'kidlanadi. Shuningdek, bolalarni hayotga tayyorlovchi amaliyotga yo'naltirilgan dasturlarni rivojlantirish muhimligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Yaponiya ta'lim tizimi, O'zbekiston ta'limi, maktabgacha ta'lim, o'qituvchi malakasi, ta'lim sifati, 12 yillik ta'lim, innovatsion yondashuv, amaliyotga yo'naltirilgan dasturlar, shahar va qishloq maktablari, bolalar tarbiyasi.

Kirish.

Yaponiya ta'lim tizimi dunyodagi eng samarali va intizomli tizimlardan biri hisoblanadi. Bu tizimning shakllanishi yapon xalqining qadimiy madaniyati, mehnatsevarligi va bilimga bo'lgan chuqur hurmatiga tayanadi. Mamlakatda ta'lim nafaqat bilim berish jarayoni, balki shaxsiy tarbiya, mas'uliyat, intizom va jamiyatga foydali inson yetishtirishning muhim qismidir. Yaponiya ta'lim tizimi. Yaponiya - juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha

davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi.[1] Ushbu yutuqlar ta'lim sohasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, yapon maktablaridagi qat'iy tartib, yangicha pedagogik yondashuvlar va o'qituvchilarga bo'lgan yuqori talablar bunga asos yaratadi. Yaponiya ta'lim tizimi 6-3-3-4 modeli asosida ishlaydi: 6 yil boshlang'ich, 3 yil o'rta maktab, 3 yil yuqori o'rta maktab va 4 yil oliy ta'lim. Majburiy ta'lim 9 yilni tashkil etadi. Boshlang'ich bosqichda o'quvchilarga odob, axloq, tozalik, jamoaviylik, hurmat va mehnatni sevish tamoyillari chuqur singdiriladi. O'quvchilar maktabni o'zlari tozalashi, tartibga rioya qilishi — yapon madaniyatining ajralmas qismidir. O'rta va yuqori maktablarda fanlar chuqurlashtirilib o'qitiladi, texnologiya, informatika, robototexnika kabi zamonaviy yo'nalishlarga katta e'tibor beriladi. Ko'pchilik o'quvchilar qo'shimcha ta'lim markazlari — “juku”larga qatnab, oliygoh imtihonlariga tayyorlanadi. Bu ularda mehnatsevarlik va mas'uliyat tuyg'usini yanada mustahkamlaydi. O'qituvchilar mamlakatda juda hurmat qilingan kasb egalari bo'lib, ular qat'iy malaka imtihonlaridan o'tadi, doimiy ravishda o'z ustida ishlaydi va o'quvchilar bilan individual tarzda ishlashga katta e'tibor qaratadi. Yaponiya ta'lim tizimi bir qator yutuqlarga ega: o'quvchilarning xalqaro PISA baholashlarida yuqori natijalar ko'rsatishi, savodxonlikning 99% bo'lishi, maktablarning texnik jihozlanishi va tarbiya sifatining yuqoriligi shular jumlasidan. Shu bilan birga, tizimda ayrim muammolar ham mavjud: kuchli raqobat tufayli stress, ortiqcha dars yuklamasi va ayrim yoshlarning ijtimoiy chekinishi kabi holatlar ham kuzatiladi. Ammo shunga qaramay, Yaponiya ta'lim tizimi dunyodagi eng yetakchi va o'rnak bo'ladigan tizimlardan biri bo'lib qolmoqda. Yaponiyada o'qituvchilik nafaqat bilim berish, balki jamiyat uchun eng ishonchli va obro'li kasblardan biri hisoblanadi. O'qituvchilar mamlakat kelajagini shakllantiradigan asosiy kuch sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli, davlat ularning ish haqi, ijtimoiy himoyasi va kasbiy rivojlanishiga juda katta e'tibor qaratadi. Yapon maktablarida maosh tajribaga qarab belgilanadi. Dastlab ish boshlaganda o'qituvchi taxminan 2,5 ming dollar oylik olishi mumkin. Tajribaga qarab o'qituvchining oyligi oshib boradi. Maktab direktorlari 4-5 ming dollargacha maosh oladi.

Shuningdek, o'qituvchi ishlayotgan maktabning shahardan chetda, shahar markazida, olisroq hududda ekaniga qarab ham oyliklar farqlanadi. Lekin o'qituvchining daromadi xarajatlarini qoplashga bema'lol yetadi. Deyarli hamma o'qituvchining o'z shaxsiy avtomobili bor[2]. Shuningdek, Yaponiyada o'qituvchilar yiliga bir necha bor malaka oshirish kurslaridan o'tadilar. Ular yangi texnologiyalar, innovatsion o'qitish metodlari, psixologiya va sinf boshqaruvi bo'yicha muntazam ravishda yangilanib boruvchi treninglarda ishtirok etadilar. Maktablarda o'qituvchilarning ish yuklamasi ancha katta bo'lsa-da, ularning mehnati yuqori darajada qadrlanadi. Har bir o'qituvchi darsdan tashqari o'quvchilarni tarbiyaviy ishlar, klublar, sport mashg'ulotlari va sinfdan tashqari loyihalarda ham boshqara olishi talab etiladi. Yapon jamiyatida o'qituvchilar odatda yuqori saviyada ma'naviyatli, intizomli, namunali shaxs sifatida qabul qilinadi. O'qituvchilar uchun maxsus pensiya dasturlari, tibbiy sug'urta, transport kompensatsiyasi va qo'shimcha mukofot pullari ham mavjud. Ba'zi prefekturalarda uzoq hududlarda ishlayotgan ustozlarga qo'shimcha bonuslar beriladi. Bu tizim o'qituvchining yashash sharoiti va kasbiy motivatsiyasini yaxshilashga xizmat qiladi. Umuman olganda, Yaponiyada o'qituvchi kasbi jamiyatda eng barqaror, hurmatli va iqtisodiy jihatdan yetarlicha ta'minlangan kasblardan biri sanaladi. Bu esa ta'lim tizimining yuqori sifatda ishlashiga kuchli turtki beradi. Yaponiyada maktabgacha ta'lim tizimi tarixan nisbatan kech shakllangan bo'lsa-da, juda tez rivojlangan sohalardan biridir. Mamlakatda ilk bolalar bog'chalari xorijiy ta'sir ostida tashkil topgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan yapon milliy an'analarga moslashtirilgan. Yaponiyadagi birinchi yosh bolalar guruhi 1871-yilda Yokoma shahrida, 1894-yili esa Tokio shahrida birinchi yapon bog'chalari amerikalik ayollar tomonidan tashkil etilgan. 1876-yilda Frebel uslubidagi birinchi bog'chalar taqil faoliyati childi. 1947-yildan qonun bo'yicha boshlab yaslilar va bolalar bog'chalari maktablar qoshida tashkil etila boshlandi. Yaslilarning asosiy e'tibor markazida bolaning kun davomidagi parvarishi turar edi hamda ular Sog'liqni saqlash vazirligi va ijtimoiy himoya tasarrufida edi. Ammo 60-yillardan boshlab ularning dasturlari bog'chalarnikidan farq qilmay qo'ydi. [3] Ushbu tarixiy rivojlanish Yaponiyada bolalar tarbiyasiga bo'lgan e'tiborning qanchalik erta boshlanganini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim dasturlari boshlang'ich ta'limga tayyorlov sifatida juda muhim o'rin tutadi. Bog'chalarda bolalarga

mustaqillik, tartib, jamoada muloqot qilish, tozalik, estetik tarbiya, musiqiy mashg'ulotlar, jismoniy faollik va tabiat bilan tanishish kabi ko'nikmalar beriladi. Bolalar bog'chalari ikki turga bo'linadi: ta'lim vazirligi tasarrufidagi yochien (tarbiyaviy va ta'limiy yo'nalish), hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimiga mansub hoikuen (asosan parvarish va tarbiya). 1960-yillardan boshlab bu ikki tizimning o'quv dasturlari bir-biriga yaqinlashdi, natijada Yaponiyada maktabgacha ta'lim yanada yaxlit, samarali va sifatli tizimga aylandi. Hozirgi kunda Yaponiyada uch yoshdan boshlab bolalarning bog'chaga borishi keng tarqalgan. Davlat va xususiy bog'chalarda tarbiyachilar yuqori malakaga ega bo'lishi, psixologiya va pedagogika bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tishi shart. Bog'chalarda bolalar soni cheklangan bo'lib, tarbiyachiga bir nechta boladan ortiq yuklama berilmaydi. Bu esa bolalarga individual e'tibor berilishiga imkon yaratadi. O'zbekiston ta'lim tizimi ham so'nggi yillarda maktabgacha ta'limni kengaytirishga katta e'tibor qaratmoqda. 2017-yilda maktabgacha ta'limga qamrov atigi 30% bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 77% ga yetdi. Shu bilan birga, yangi bog'chalar qurilishi, mavjudlarining ta'mirlanishi va sifatni oshirish ishlari amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda bog'chalarda tarbiyachilar ham maxsus tayyorgarlikdan o'tadi, lekin Yaponiyadagi kabi har bir tarbiyachiga cheklangan bolalar soni berish tizimi hali to'liq yo'lga qo'yilgan emas. Shahar va qishloq o'rtasidagi farqlar ham seziladi, ayniqsa qishloqlarda sifatli maktabgacha ta'lim imkoniyatlari cheklangan. Shu sababli, O'zbekiston uchun asosiy vazifa — ta'lim sifati va imkoniyatlarni bir xilda ta'minlash, tarbiyachilarning malakasini oshirish va bolalarga amaliy ko'nikmalarni beruvchi dasturlarni kengaytirishdir. Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tizimini sifatli tashkil etish nafaqat bolalarni bilimga tayyorlash, balki ularning shaxsiy rivoji va jamiyatga foydali bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston ta'lim tizimi hozir o'zgarishlar davridan o'tmoqda, lekin haligacha asosiy muammo sifatning bir xil emasligidadir. Ba'zi maktablarda sharoitlar yaxshi bo'lsa, boshqalarida eski uslub va o'qituvchi yetishmasligi saqlanib qolgan. Mening fikrimcha, ta'limni kuchaytirish uchun birinchi navbatda o'qituvchining mehnati qadrlanishi, maoshi va malaka oshirish imkoniyatlari yaxshilanishi kerak. Chunki o'qituvchi kuchli bo'lsa, ta'limning o'zi ham ko'tariladi. Ikkinchidan, darslar ko'proq amaliyotga yo'naltirilsa,

bolalar nafaqat yodlashni, balki real hayotda qo‘llashni ham o‘rganadi. Masalan, muloqot, moliyaviy savod, psixologik barqarorlik yoki kasb tanlashga oid ko‘nikmalar juda zarur. Uchinchidan, shahar va qishloq maktablari o‘rtasidagi katta farq kamaytirilishi kerak. Qishloqlarga yaxshi o‘qituvchilarni jalb qilish, texnika va jihozlarni yetkazish — bu teng imkoniyat yaratadi. Xulosa qilib aytganda, ta’limni rivojlantirish uchun poydevor bor, faqat uni izchil davom ettirish va har bir bola uchun sifatli bilim berishga e’tibor kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1-XOLOV OLIMJON CHORSHAMIYEVICH. "Umumiy pedagogika" 2023-yil. 321- bet

2-<https://kun.uz>

3-Alisher Bolibekov. "YAPONIYA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI" 2024. 5- bet . (<https://ru.scribd.com/>)